



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 dekabr holatiga


2017 yilning 1 dekabr holatiga Xorazm viloyatida jami ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14307 taga etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 409 taga ko'pdir(2,9%).

Shuningdek, faoliyati ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 13679 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 % ga ko'paygan hamda ularning soni 308 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 102 ta (19,3 %) ga ko'paygan hamda ularning umumiy soni 528 tani tashkil etgan.


Shu bilan birga 2017 yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni 1584 taga etib, tugatilganlar soni 1183 ta ekanligi kuzatilmoqda.

## Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2017 yil yanvar-noyabr oylarida 1584 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,8 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (464 ta), Xiva tumani (222 ta), Urganch (190 ta), va Xonqa tumanlarida (121 ta) tashkil etilgan. Eng kam Xiva shahri (36 ta), Yangibozor (44 ta), hamda Bog'ot (54 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat (367 ta), savdo (341 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (174 ta) va qurilish (152 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (31 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (52 ta) hamda tashish va saqlashda (75 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 51 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga yoki 37,8 % ga o'sgan. Bundan tashqari 2017 yil yanvar-noyabr oylarida 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangidan tashkil topgan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qo'radigan bo'lsak sanoatda –6 ta, savdoda-2 ta, qurilish hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida-1 ta dan tashkil topgan.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda




## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2017 yil 1 dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10914 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2016 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 4,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2694 tasi (24,7 %) Urganch shahriga, 2270 tasi (20,8 %) Xiva, 1146 tasi (10,5 %) Urganch tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2017 yil yanvar-noyabr oylarida 1472 kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 4,7 % ga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (414 ta), Xiva (214 ta), Urganch tumanlarida (180 ta), tashkil etilgan. Eng kam Xiva shahri (26 ta), Yangibozor (39 ta), Bog'ot (45 ta) hamda Shovot (54 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2017 yilning 1 dekabr holatiga 875 tani tashkil etib, ulardan 845 tasi yoki 96,5 % faoliyat yuritadi.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**  
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan